

TAMARAXONIM

Mumtozbeginim Turg'unova Xoreografiya

jamoalar rahbari 2-bosqich talabasi

Abduhamidov Akmal

Ilmiy rahbar

O'z DSMI FMF "Xoreografiya" o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Tamaraxonim — (asl ismi va familiyasi Tamara Artyomovna Petrosyan 16(29).03.1906, hozirgi Yangi Marg'ilon shaharchasi — 30.06.1991, Toshkent) qo'shiqchi va raqqosa, baletmeyster, o'zbek professional raqsi asoschilaridan biri. O'zbekiston xalq artisti.

Kalit so'zlar: raqs, balet, baletmeyster, qo'shiqchi, tadqiqot, teatr.

Tamaraxonim 1906-yil 29-mart kuni Turkiston o'lkasining Gorchakovo bekatiga (hozirgi Marg'ilon shahri) surgun qilingan Anna va Artyom Petrosyanlarning oilasida tug'ilgan. Tamaraxonimning asli armanistonlik bo'lgan ota-onasi ishchilar qo'zg'oloni tufayli Yangi Marg'ilon (hozirgi Farg'ona) shahriga ko'chib keladi. Tamara ham shu yerda dunyoga keladi. Tamaraxonimning o'zbek raqsi tadqiqotchisi, san'atshunos Lyubov Avdeyeva tomonidan tartibga solingan avtobiografiyasi — „Mening hayotim. O'zim va O'zbekistonning taniqli san'atkorlari haqida xotiralar“ kitobida xonimning otasi arman tori, o'zbek tanburini yaxshi chalgan, onasi esa raqsga tushib, qo'shiq kuylagani to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi[1]. Tamaraxonim o'zbek mahallada ulg'aygan. Tamara ko'zboylag'ichlar, dorbozlar va raqqoslar o'yiniga qiziq boshlagan va uyda ularning harakatlarni takrorlagan. Borgan sayin uning harakatlari ildamroq bo'lib, olti yoshga kirib, qizaloq raqsga tusha boshlagan Tamara Petrosyan Moskva teatr texnikumida o'qigan (1923-24). Yoshligidan san'atga qiziqqan: dastlab Marg'ilon, Farg'ona ayollari orasida raqsga tushib, qo'shiq aytgan. Yusufjon qiziq Shakarjonov, Usta Olim Komilovlardan o'zbek raqs harakatlarini, Hamza, Konstantin Stanislavskiy, Vladimir Nemirovich-Danchenko va boshqalardan qo'shiqchilik, aktyorlik mahoratini o'rgandi. Sahna faoliyatini 1919-yil Hamza Hakimzoda Niyoziy truppasida boshlagan. Keyinchalik Yusufjon qiziq truppasida ishlagan. 1922-yil boshida o'zbek professional xonandasi Mulla To'ychi bir boyning uyidagi qo'shiq kuylash bazmiga Tamaraxonimni taklif qiladi. Tamaraxonim u yerda Usta Olim Komilov bilan tanishib qoladi. Usta Olim truppa tashkil qilganida Tamarani ham

jamoasiga taklif etadi. Tamaraxonim 1921-1922-yillar Toshkent rus opera va balet teatri o'quvchisiga aylanadi va Abror Hidoyatov, Yatim Bobojonov, Ali Arodobus Ibrohimov kabi birinchi o'zbek artistlari rahbarlik qilgan konsert guruhlarida raqsga tusha boshlagan. 1923-yil u Moskvada A. V. Lunacharskiy nomidagi Teatr texnikumida o'qishni davom ettiradi. Aynan Moskvada Tamaraxonim „Sharq qaldirg'ochi“ nomiga ega bo'lgan[2]. 1924-yildan Muhiddin Qoriyoqubov rahbarligidagi konsert truppasi (1926-yildan O'zbek davlat konsertetnografik ansambli, 1929-yildan O'zbek davlat musiqali teatri)da faoliyat ko'rsatgan. 1925-yil Parijda bo'lib o'tgan Jahon bezak san'ati ko'rgazmasida Muhiddin Qoriyoqubov bilan birgalikda ishtirok etib, o'zbek san'atini ilk bor Yevropada namoyish etgan. Tamaraxonim o'zbek lapar va yalla namunalarini sahnaviy ijro sharoitiga moslashtirib, yangicha ifodaviy vositalar (mimika, raqs, dialog va boshqalar) bilan boyitib, ular negizida bir necha kichik musiqiy insenirovkalarni yaratdi, milliy ommabop (estrada) san'at rivojiga asos soldi. Tamaraxonim ijrosidagi qo'shiq va laparlar („Lolaxon“, „Qorasoch“, „Bilaguzuk“, „Oyijon“, „Fabrikaning yo'lidan“, „Qizlar, shitobingiz nima?“, „Gulyor“, „Yetimlar yig'isi“, „Tuyg'unoy“, „Erk bolalari“ va boshqalar), „Sinaxiroj“, „Dilxiroj“, „Qarinavo“, „Usmoniya“ singari raqslari xalqqa manzur bo'lgan. 37-yil Moskvada bo'lib o'tgan birinchi o'zbek san'ati dekadasida ham ishtirok etgan. 1936-41-yillar O'zbek davlat filarmoniyasi, O'zbek davlat musiqali teatri (1939-yildan O'zbek davlat opera va balet teatri)da raqqosa va baletmeyster bo'lgan. 1941-69-yillarda O'zbek davlat filarmoniyasining musiqa ansamblida badiiy rahbar, baletmeyster va aktrisa. 1938-yil Tamaraxonim ikki janrni — qo'shiq va raqsni birlashtirib, sahna san'atida o'ziga xos o'zgarish qilgan. Tamaraxonim turli tillarda kuylar edi ham. Aktrisalik mahorati Tahrirlash 1925-29-yillar Andijon, Qo'qon, Samarqand teatrlarida sahnalashtirilgan musiqali dramalarda Halima (F. Zafariy, „Halima“), Shirin (Xurshid, „Farhod va Shirin“), Gulchehra (Uzeir Hojibekov, „Arshin mol olon“) singari rollarni ijro etdi. 1929-34 yillar Samarqanddagi O'zbek davlat musiqali teatri (1931-yil teatr Toshkentga ko'chirilgan)da, 1934-35-yillar Xorazm teatrida ishladi. 1934-yil M. Yanovskiyning „Ferenji“ baletida Indra rolini o'ynadi. Baletmeyster sifatida Tahrirlash Tamaraxonim 1932-yil rejissyor Z.Qobulov va bastakor P. Rahimov bilan hamkorlikda Urganch shaxrida teatr tashkillashtiradi va unda ham baletmeyster, raqqosa hamda pedagog-tayyorlovchi bo'lib faoliyat yuritadi. Tamaraxonimning tashabbusi bilan Toshkentda mumtoz balet maktabi ochiladi. Raqqosalik mahorati Tamaraxonim Ikkinchi jahon urushi yillarida konsert brigadalari bilan armiya qismlarida xizmat qildi. Tamaraxonim qaysi xalq qo'shiq va raqsini ijro etmoqchi bo'lsa, o'sha xalqning tarixi, etnografiyasi, mahalliy urfodatlarini, san'ati va madaniyatini batafsil o'rganib, so'ng ijro etgan. Uning ijrosida „Erta bilan“ (qo'qoncha), „Yallama yorim“ (marg'iloncha), „Omonyor“ (andijoncha),

“Farg‘onacha raqs”, “Buxoro cha raqs”, “Mavrigi”, “Lazgi” (xorazmcha), “Bibijon” (turkmancha), “Yangi oy” (mo‘g‘ulcha), “Nikoh to‘yi” (gruzinch a), “Eshikni qoqma” (ozarbayjoncha), “Gulizor” (turkcha), “Chando” (indonezcha), “Xumor ko‘zlar”, “Binti shalobiya” (arabcha), “Banday tog‘i” (yaponcha), “Cho‘pon raqsi”, “Torazi” (koreyscha), “Shirin zaban” (afg‘oncha), “Nilufar” (hindcha), “Parizodoy” (qirg‘izcha), “Jo‘ra jonim” (tojikcha), “Garmonchi” (tatarcha), “Oy da Galya i Sultan” (ukraincha) kabi 500 dan ortiq qo‘shiq va raqslar 86 tilda yangragan. U ustoz i Usta Olim Komilov bilan ko‘plab o‘zbek xalq raqs larini sahnalashtirib, o‘ziga xos (ayollar va erkaklar raqsi harakatlarini mujassam etgan) uslubini yaratdi, yangi zamonaviy raqslar, teatrlashgan raqs syujetlarini, yangi xoreografik kompozitsiyalarni (“Gul o‘yin“, “Sadr“, “Zang“, “Pilla“, “Kema o‘yini” kabi) ijod qildi. U o‘zbek xalq raqs harakatlari bilan Yevropa mumtoz balet raqslari harakatlarini uyg‘unlashtiruvchi dasturlar (“Bahor“, “Navo“, “Qizil va oq atirgullar urushi” va boshqalar) yaratdi, bular milliy o‘zbek baletini yuzaga kelishida, milliy xoreografiyani rivojlantirishda muhim omil bo‘ldi. U birinchi o‘zbek baletlaridan “Gulandom” (Yevgeniy Brusilovskiy, 1938) librettosini Uyg‘un va M. Yanovskiylar bilan birgalikda yaratdi, uni sahnalashtirib, bosh rolni o‘zi ijro etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. „Sharqning ilk qaldirg‘ochi“ (2 aprel 2023). Qaraldi: 7-iyun 2023-yil.
2. „Tamara xonum“. Qaraldi: 7-iyun 2023-yil.
3. "Tamaraxonim" O‘zME. T-harfi[sayt ishlamaydi] Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil